

TALABALAR ONGIDA ESTETIK DID VA MILLIY O'ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI VA OBRAZ QOIDALARINING O'RNI

Shixnazar Rahimberganovich Jumaniyazov

Professor

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Toshkent, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V3-I6-1>

Annotatsiya: Ushbu maqola talaba yoshlar ongida estetik did va milliy o'zlikni shakllantirishda tasviriy san'atning ahamiyati hamda obraz qoidalarining o'rni haqida bo'lib, unda idrok qilish jarayonlarining rassomchilik bilan bog'liqligi, bir qator rassomlarning ijodiy asarlari bilan misol qilib keltirilgan.

Shu bilan birga tasviriy san'atning tasviriy shakllari ranglari va farqlari yozib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, milliy o'zlikni anglash, estetik did, ijtimoiy hayot, jamiyat, umuminsoniy xususiyat, idrok, tasavvur, ijodkor, asar, tasviriy faoliyat, milliy g'urur.

KIRISH

Bizni o'rab turgan yangicha ko'rinishdagi olam ajoyibotlari dunyodagi uzoq rivojlanish jarayoni, jamiyat va insonning ijtimoiy-tarixiy tajribasi asosida vujudga kelgan. Predmetli fazoviy muhit insondan tashqarida, o'zining butun mazmunini yo'qotadi. Qadimgi Sharq mutafakkirlari, keyinchalik esa XVII—XIX asr faylasuflari ham, faqatgina inson hamma narsalarning estetik va jismoniy o'lchovidir, deya ta'kidlashgan[13].

ASOSIY QISM

Darhaqiqat estetik rivojlanish boshqariladigan va shakllantiriladigan jarayondir. Ayniqsa, yoshlar atrofdagi narsalarga juda ta'sirchan bo'ladilar, shuning uchun ham ularda milliy o'zlikni anglashga ko'maklashuvchi tasviriy san'at asarlarini ishlash, unda targ'ib etilgan g'oyalarining ko'lamini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Har bir inson o'zgarishlarga qodir. Ayniqsa, yoshlarda bu juda kuchli jarayon bo'lib, ularga hayotidan alohida lahzalarni eslatishning o'zi kifoya ularning muhiti o'zgargan vaqtida, atrof-muhit ularda qanchalik katta iz qoldirishi ochiq ko'rindi.

Chunki muayyan ijtimoiy hodisalar, turli davrlar silsilasi didning mazmuni va ko'rinishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tabiat, jamiyat, san'at va insondagi go'zallikni xunukliklik, noziklikni qo'pollikdan, yaxshini yomondan ajrata bilish estetik did xarakteri va darajasini ko'rsatadi. Estetik did milliy va umuminsoniy xususiyatlarga ega. Milliy xususiyatlar aniq tarixiy sharoit va an'analar bilan, umuminsoniy xususiyatlar esa bashariyat ma'naviy merosi bilan bog'liq[9,250].

His-tuyg'usiz, ma'naviy kechinmasiz estetik did amal qilmaydi. Estetik did muhokamasida mavhum tafakkur emas, ma'naviy tuyg'ular, yorqin his-hayajonlar birinchi o'rinda turadi. Estetik idrok

jarayonida, ya'ni biror narsaning estetik qiymatini belgilashda insonning aqliy va hissiy salohiyatlari birligida qatnashsa-da, hissiy mushohada asosiy ahamiyat kasb etadi.

Talaba yoshlar ongida estetik did va milliy o'zlikni shakllantirishda tasviriy san'atning o'rni haqida so'z borganda albatta bu jarayon atrof olamdag'i narsa hodisalami idrok qilishdan boshlanadi. Bilishning hamma boshqa shakllari — esda olib qolish, tafakkur, tasavvur idrok obrazlari asosida ko'rildi.

Badiiy obrazning yaratilishi mazmunning yorqin hissiy shaklda berilishiga asos bo'ladi. Rassom esa predmetni tasviriy maqsadda idrok qilganida shakl, rang, fazoda joylashishini har tomonlama o'rganadi.

Mashhur rassom K.F.Yuon aytganidek ijodkor idrokining o'ziga xos tomoni shundaki, u diqqat bilan hayotdagi hamma oddiy va oddiy bo'lмаган, barcha ifodali va bir xil narsalarni ko'rib, belgilay olishi va o'z asarida aks ettirishi kerak.

"Insonning bilimlarni egallashi sezgi vositasida amalga oshiriladi. Sezgi bu — inson ko'nglining bilimlarni egallash vositasi", — degan edi[13].

Qandaydir buyumni bilih, fikrlash kuchi, tasavvur yoki hissiyotning vositasi bo'lishi mumkin. Xususan, tevarak-atrofni idrok qilish maqsadga yo'nalgan bo'lishi kerak. Tasviriy san'at asarini ishlashdan oldin Talaba nimani va nima uchun kuzatishi kerakligini aniq tasavvur qila olishi zarur.

Bunday maqsadga yo'nalganlik va harakatning mukammalliligi idrokni chuqurlashtiradi, ma'lum daqiqalarda diqqatni va fikmi to'playdi, hamda tanlanganlik, baholangan ko'rinishga keladi. Predmetlarni to'g'ri joylashtirish va ularning xususiyatlarini ajrata bilish muhimdir.

Bu jarayon tasviriy faoliyatda alohida ahmiyatga ega. Tasviriy faoliyat uchun birinchi o'rinda ko'rish va his etish sezgilarining rivojlanishidir[1,46]. Tasviriy faoliyat talabalarning estetik did haqidagi tasavvurlarining kengayish va mustahkamlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tasviriy san'atda tasvir masalasi kuchli idrok qilishni talab etadi. Qurilgan narsaning tasvir masalasini yecha turib, talaba har doim narsalarni yangicha tomondan anchagina tezroq, kuchliroq va aniqroq qurishni o'rganib boradi. Idrok etishning rivojlanishi tasviriy faoliyatdan kelib chiqib, ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchedan, o'rab turgan voqelik bilan tanishish jarayonida talabaning bilish va estetik malakasini boyitadi, ikkinchedan, turli predmetlar haqidagi tasavvurlari aniqlashadi[10,8].

Predmetlarning xususiyatlari va belgilarini idrok etish shu predmetlaring keyinchalik tasvirlay olishi, tekshirish vositalari orqali tanishishni talab qiladi. Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlarida tekshiruv maqsadlari turlicha bo'ladi.

Proporsiya hissi, konstruktiv butunlik turli qurilishlarni idrok etish orqali kelib chiqadi[3,6]. Talaba qanchalik atrofni bilib idrok eta olsa, uning estetik tuyg'usi shunchalik chuqur, murakkab bo'lib boradi. Asta-sekin asar ishslash jarayonida elementar estetik fikrlash qobiliyatini egallab boradi. Talabada estetik tuyg'ularning rivojlanishi predmetning va uning xususiyatlarini estetik tomondan baholay olishlariga olib keladi hamda estetik didi yuksalib boradi.

Hozirgi kunda milliy o'zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda inson ongida qaror topmoqda va u iroda bilan bog'lanib, amaliy harakat tusiga kirmoqda. Chunki milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi sharoitda mamlakat hayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab, yetmoqda[14]. Yoshlar qalbi va ongiga milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini chuqur singdirish, milliy g'ururni tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu qatorda yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirishda tasviriy san'at asarlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda milliylik nafasi ufurib turuvchi g'oyalar bilan to'la bo'lgan ijodiy asarlar va bir qator rassomlarimiz ijodini misol qilib ko'rishimiz mumkin.

O'zbek rassomlaridan S. Abdullayev, L. Nasriddinov, M. Nabiiev, S. Muhamedov, R. Ahmedovlar B. Hamdamiy qo'lida ta'lim olib, undan realistik san'at sirlarini o'rgandilar[3,18]. O'z asarlарida insonning go'zalligini, uning kuch-qudratini, matonatini, milliy an'ana, tarixiy milliy qarashlarni aks ettirishga harakat qildi. Shu davrda zamondoshlarining portretlarini yaratish ustida ish olib borgan rassom Y. Oxunboyev, G. G. 'ulom va S. Ayniy portretlarida rassom ularning ichki dunyosini chuqur ruhiy asosda ochib berishga harakat qildi. Uning "Qirq qiz" eposiga yaratgan illustratsiyalari respublika badiiy madaniyatining oltin fondidan munosib o'rinni o'rganadi.

A. N. Volkovning ijodi alohida o'rinni egallaydi. Uning ijodiy yo'nalishi ranglarga boyligi, rang orqali shakl yaratish, insonning ichki dunyosini bo'yoqlar vositasida ochib berish bilan bog'liq. O'zbekiston unga qadrdon ona yurt bo'lgani uchun milliy san'at an'analarini chuqur o'rgandi, xalqqa tushunarli, uning ruhiyatini ifodalovchi asarlar yaratish ishtiyoqi bilan ijod qildi[1,29].

Toshkent badiiy bilim yurtini tamomlagan rassomlardan biri Latif Nasriddinovning "Avtoportret"ida odamiylik, mehnatsevarlik, soddalik kabi oljanob fazilatlar o'z badiiy ifodasini topgan.

O'rol Tansiqboyev ijodining dastlabki yillari voqelikni haqqoniy aks ettirish vositalarini izlashga qaratilgan. Rassomning ilk asarlardan biri bo'lgan "O'zbek yigit" (1975) portretida rassom o'z za mondoshi A. Toshkanboyevni tasvirlab, uning o'ziga xos xarakterini ko'rsatib berishga harakat qildi[1,34].

Rassom o'z taassurotlarini "Urush yillari" asarida aks ettirdi. "Partizan qiz", "Ozod qilingan

yerda", "Vatan mehmonlari" suratlari, ayniqsa, muvaffaqiyatli chiqqan. Urushdan keyingi yillarda O'. Tansiqboyevning ijodi. asosan, go'zal va nafis tabiat manzaralarini mo'yqalam yordamida haqqoniy aks ettirishga qaratildi. Uning "Issiqko'l oqshomi", "O'zbekistonda bahor", "Qayroqqum GESining tongi", "O'rik gullamoqda", "Kuz tongi" kabi ko'plab asarlari rassomning manzaranavislik san'atining mohir ustasi sifatida jahonga tanitdi[14]. O'rol Tansiqboyevning "Jonajon o'lka" asarini ko'rgan tomoshabinning ko'z o'ngida o'zbek diyori, uning dilga orom beruvchi tabiat, kishilarning mehnati bilan bog'-bo'stonga aylanayotgan yerlar gavdalanadi. Asarlarni kuzatganda har bir inson qalbida milliy o'zlik g'oyalarini yuksalib boradi.

Aniqsa, rassomning "O'zbekistonda mart" asari ko'p yillik ijodiy izlanishlar samarasi. Unda so'lim bahor damlarida uyg'onayotgan tabiat ohangdor ranglarda ifodalangan. Birinchi ko'rinishda tog' etagidagi yam-yashil vodiylari nariroqda yoyilib oqayotgan daryo, gullayotgan o'rik daraxtlari, feruza osmon O'zbekiston bahoriga xos nafislikni va milliylikni oshib bergan.

Talaba yoshlarda milliy o'zlikni shakllantirishda tasviriy san'atning tasviriy vositalari ham asosiy o'rinni egallaydi. Obrazni ishslash qoidalari haqida to'xtalganda muvozanat hamda umumiylilik qonun-qoidalari alohida ta'kidlash lozim.

Muvozanat simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo'ladi. Muvozanatga elementlar miqdori, shakli, ularning muhit bilan o'zaro munosabati, rangi, fakturaviy yechimining uyg'unligi bilan erishiladi. Asimetrik kompozitsiya rassomchilikda asosiy personajlar guruhining manzara yoki fazoviy muhit bilan, me'morchilikda hajmni fazo bilan birlashtirish yoki fazoni o'ziga bo'ysundirish imkonini beradi. Simmetrik va asimetrik kompozitsiyaning birini ikkinchisidan ifodaliroq, deb bo'lmaydi. Rassomchilik, asarlarini yaratishda kompozitsiya ishslash uchun proporsiya, nyuans, ritm, masshtab kabi asosiy vositalar qo'llaniladi[6,58].

Mazkur vositalar rassom asarida ham personajlar orasidagi mutanosiblikni muvofiqlashtiradi, uzoq va yaqinli o'zaro birlashtiradi, soya va o'ta yorug'likni uyg'unlashtirib aks ettirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Frontal kompozitsiyada esa asar mustaqilligiga erishishga harakat qilinadi. Uni yaratishda ijodiy izlanish ma'lum chegara ichidagi yuzada olib boriladi. Unda kompozitsyaning barcha vositalaridan unumli foydalaniladi.

Chuqurlashgan-fazoviy kompozitsiya yaratishda uyg'unlik qonunlari: muvozanat qonuni, birlik qonuni va bir-biriga bo'ysunish qonuni hamda kontrast, ritm, o'xshashlik, proporsiya va masshtab kabilardan foydalaniladi[10,251].

Tabiat va atrof-muhitimiz o'zining rang-barangligi bilan kishini hayratda qoldiradi, unga zavq bag'ishlaydi. Inson o'zi sevgan rangli muhitda bo'lgisi keladi. Bir so'z bilan aytganda, inson hayoti doimo rang bilan ham ohang bo'lgan. Rang qo'llash yo'li bilan issiq yoki sovuq, aktivlik yoki passivlik, yaqin yoki uzoq, balandlik-pastlik yoki quruqlik, og'ir-yengil,

turg'unlik (statik) yoki harakatchanlik (dinamik), jo'shqinlik yoki xotirjamlik kabi ta'sir (emotsiya) holatlarini bera oladigan muhit yaratish mumkin. Ranglar asosan ikki guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga ochdan to'qqacha bo'lg an - oq, qora va barcha kulrang (neytral) ranglar kiradi. Ikkinci guruhga barcha qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy ko'k, binafsha, qirmizi ranglar kiradi. Birinchi guruh ranglari axomatik, ikkinchi guruh xromatik deb ataladi. Toza ranglar rang spektorining asosini tashkil qiladi[2,13]. Ranglar boy politrasini, ya'ni gammasini xromatik ranglardan qizil, sariq, ko'k, axomatik ranglardan qora va oq ranglar tashkil qiladi. Kishi ko'z o'ngida uzoqlik va yaqinlik hissiyotini ham ranglar orqali belgilashi mumkin. Masalan: qizil, to'q sariq, sariq kabi iliq mijozli ranglarga bo'yangan yuza bizga sovuq mijozga kiruvchi yashil, ko'k, binafsharanglarga bo'yangan yuzaga nisbatan yaqin ko'rindi.

Shu o'rinda Samarqandda ilk o'rta asrlarga oid Afrosiyob shohlar saroyi interyerida ishlangan rangli devoriy suratlarga murojaat qilamiz. Mazkur obidada ham boshqa obidalardagidek devor yuzasi mahalliy ganch bilan pardozlangan. U devorga sarg'ishroq tus berib, unga issiqlik bag'ishlagan. Ganch yuzali devor ranglarning boy, vazmin vaznga ega bo'lishini ta'minlagan, ya'ni iliq mijoziy ranglarning devor mag'ziga singib, bosiqroq va gamma jihatidan boy bo'lishiga olib kelgan.

Shuningdek, tasvirlardagi ranglar yorqinlik jihatidan bir-biridan keskin ajralmagan. Ular yaxlit bir gammani tashkil qiladi. Shuning uchun saroy devorlaridagi mahobatli tasvirlar o'zining me'daga tegmaydigan darajada mayinligi, iliqligi va mutanosibligi bilan kishida yoqimli taassurot qoldiradi.

Inson ranglarni idrok qiladi. Ranglar buyum xususiyati sifatida mavjuddir. Ranglarning inson organizmiga ta'sirini asosan ikki guruhga ajratish mumkin: uzun to'lqinlar bilan xarakterlangan qizil, to'q sariq, sariq ranglar kishi hayotiy jarayonini jadallashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday ranglar faol ranglar qatoriga kiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda talaba yoshlar ongida estetik did, milliy o'zlikni shakllantirishda tasviriy san'atning nazariy hamda amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, bu fan vazifasini qanchalik dolzarb va muhim ekanligini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov. R., "Tasviriy san'at asoslari", Toshkent, 2009 yil.
2. Nabiev M., Rangshunoslik. – Toshkent. "O'qituvchi", 1996 y.
3. "O'zbekiston san'ati". T.: 2001.
4. Abdirasilov. S., Tolipov. N., - Dastgohli rangtasvir. "Iqtisod moliya". T.: 2010.

5.O.Mo'yinov "Rangtasvir" Toshkent "Sharq" matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi 2007 yil.

6. G.A.Artiqov. "Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi" Toshkent "Sharq" matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi 2007 yil.

7. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. O'zME. Toshkent: 12 tom. 2006; 542-563 betlar;

8. Pugachenkova G. Iz khudozhestvennoy sokrovishchitsy. Srednego Vostoka Toshkent: 1987;

9. Qoraboev, U. Madaniyat masalalari. Toshkent: 2009; 251 bet

10. Stepanov, G.P. "Kompozitsionnye problemy sinteza iskusstva".- L. "Khudozhdnik". 1984

11. Dekorativnaya monumental'naya zhivopis', Shanhay. 1999.

12. Monumental'noye iskusstvo.- L.

13. <http://www.ziyonet.uz>

14. <http://www.google.uz>

15. <http://www.yandex>

16. <http://www.Wikipedia.uz>

17. <http://www.kultura.uz>